



## TURLI TIZIMLI TILLARDA TAKRORIY NOMLASHNING SEMANTIK MUNOSABATLARI

**Anarboyeva Iroda Oripovna**

*Andijon davlat chet tillar instituti*

*Roman-german va slavyan tillar fakulteti*

*Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

*iroda\_an70@mail.ru*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada turli tizimli tillarda takroriy nominasiyalarning turlari va semantik munosabatlari faktik misollar orqali qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** takroriy nomlash, emotsional baho, repriz, antisipatsiya, konkret nomlash, abstrakt nomlash, qiponim, giperonim

**Аннотация:** В этой статье сравниваются типы и семантические отношения повторяющихся существительных в языках с разной структурой на фактических примерах.

**Ключевые слова:** повторное называние, эмоциональная оценка, реприза, антиципация, конкретное называние, абстрактное называние, гипоним, гипероним.

**Abstract:** This article compares the types and semantic relations of repeated nouns in languages with different structures using actual examples.

**Key words:** repeated naming, emotional evaluation, recapitulation, anticipation, concrete naming, abstract naming, hyponym, hypernym.

Ma'lumki, avtonom bo'lmagan nomlash ikki xil bo'ladi. Ulardan birinchisi takroriy nomlashdir. Avval nomlanib bo'lgan narsa va hodisalarni qaytadan nomlash takroriy nomlash deyiladi. Modomiki, narsa allaqachon nomlangan ekan, u holda takroriy nomlash tenglashtiruvchi funksiyaga olib bormasligi mumkin. Takroriy nomlashni o'zgartirishi va ularning har xil ma'noli turlari yordamida ifoda qilish uchun sharoit yaratib beradi. [1.]

Shunday qilib, takroriy nomlash oldindan kontekstdagi mavjud bo'lgan o'sha ob'yektning boshqa nomi e'tiborga olinadi. Ikkita yoki undan ortiq nomni birga olib borish, takroriy nomlash uchun qo'shimcha, maxsus turlarni vujudga keltiradi. Masalan quyidagilar:

A) nomlash formalarining munosabatlari: bir xil va o'zgaruvchan bo'ladi.

B) nomlovchiga nisbatan munosabat: bir xil markaz nuqtali (ya'ni shu subyektga beriladi) va har xil markaz nuqtali (ya'ni nom har xil nomlovchilarga beriladi).

V) joylashtirish munosabatlari: masofali nomlash (ya'ni ular boshqa fikrlarga bo'linadi).





Nomlash funksiyasi kuchsizlantirilgan nomlash bilan bog'liqdir va unda emotsional baho berish tez- tez birinchi planga chiqadi. Takroriy nomlashning semantik munosabati, nomlash usulini yuqori darajada o'zgartirishi mumkin, undan tashqari to'g'ri nomlash bilan ham bog'liqdir. Ya'ni atoqli ot, turdosh ot bilan ba'zan ko'chirma nomlarning hamma turlaridan (abstrakt, olmosh, ko'chirma ma'noli bo'yoqlardan va nomlashning har xil ko'rinishlari nuqtai nazarlaridan jumladan, nisbiy nomlashdan ham foydalanishi mumkin. [3.]

G) semantik turlarni o'zaro joylashtirish yana bitta tipologik qarshilikni ajratishga sabab bo'ladi: repriz (ko'chma ma'no to'g'ri ma'noni kuzatadi) va antisipatsiya (ko'chma ma'no, to'g'ri ma'nodan oldin keladi).

Belgining ko'chma va to'g'ri xususiyati uning nomlash zanjiri o'rnini aniqlaydi. Chexovni „Orzular“ nomli hikoyasida ishtirok etuvchi shaxslar (ikkita ofitser va soqchilar yoki daydilar) muntazam har xil nomlar oladi. Hikoyaning boshida „ofitser“ so'zining ma'nosi abstrakt harakterdagi to'g'ri nomlash bo'lib, ijtimoiy guruhni ko'rsatuvchi nominantga qarashli, keyin u konkret va to'g'ri nomlash, ya'ni atoqli ot bilan almashinadi: so'ngra konkret nomlash abstrakt bo'lib qo'llanganda ko'chma nomlash bo'ladi.

**„Soqchi“** so'zi - uning ijtimoiy ta'rifi aniq bo'lganidan keyingina bilindi (daydi). Keyingi yangi nomlash, ya'ni ko'chma nomlash shaxsning ta'sirli ta'rifiga (ojiz odam) yoki ishtirok etuvchi shaxslarni o'zaro munosabatini ochib berishga xizmat qiladi.

Odatda, gaplardagi nomlar ketma ket kelishi: abstract (ya'ni giperonim: -insonni umumiy nomlash, jinsi yoki kasbini bildiruvchi) - konkret olmoshli (ya'ni giponim: atoqli ot yoki turdosh ot tor ma'noda) bo'ladi. Giponimdan so'ng giperonimni ko'chma formada qo'llanishi nomlashning antisipatsiyadek qarashni kuzatadi [5]. Misol uchun o'zbek va rus tillaridagi misollarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

**Daydi** sekin Nikondra tomonga o'girildi va **uning** yuzidan rohatbaxsh tabassumi g'oyib bo'ldi.

**Бродяга** медленно поворачивается в сторону Никондра, и блаженная улыбка исчезает **с его** лица.

**U** qo'rqib va gunohkordek ofitserning vazmin yuziga boqdi.

**Он** глядит испуганно и виновато на степенное лицо сотского. (Чехов)

Aniqrog'i, antisipatsiya-olmoshni joylashish o'rni ya'ni ba'zi tillarda stilistik ma'noda va gapning ergashgan tobe qismini grammatik vositalar orqali ifodalashda qo'llash mumkin. Fransuz tili bilan o'zbek tilida misol keltirsak, quyidagicha bo'ladi. Misol:

- **Quand il** sortit du bain, Archimede cria: **Eureka!**

- **Uvannadan** chiqqan vaqtda, **Arximed:-Evriska!-deb** qichqirdi.

Takroriy nomlash semantik o'zaro munosabatining har xil turlari faqat vaziyatni belgisini bildirishgagina xos bo'lmay, balki butun vaziyatga ham xosdir. Bularni farqi ayniqsa dialoglarni javobini solishtirganda, har xil shaxslar bir xil narsa haqida suhbatlashyotganda, matnni solishtirganda va boshqa tilga tarjima qilganda, ona tili





orqali bir xil voqea tasvirlanganda ham yaqqol ko'rinadi. Bu yerda ham biz o'sha munosabatni, ya'ni nomlashning taqqoslovchi belgilarini ko'rdik.

**Aynan o'xshashlik munosabati.** Hodisa sinonimik vositalari orqali tasvirlanadi, odatda hodisa belgilaridan biri bo'lgan batafsil nomlash oddiy almashtirilib kelinadi. Misol:

- Vous **faisiez la conversation** avec Cesar?
- Eh, oui, nous **parlions**. (Pagnol)
- siz Cesar bn **suhbatlashyapsizmi?**
- ha biz **gaplashyapmiz**.

Bu misolda, fransuz tili variantida birinchi, "***faire la conversation***" iborasi ishlatilayotgan bo'lsa, ikkinchisida, « **parler** » fe'li qo'llanilib kelyapti. O'zbek tili variantida esa, « **suhbatlashmoq** » fe'li, ikkinchi misolda o'zining sinonimi „**gaplashmoq**” fe'li bilan almashib kelyapti. Bu misollarda sinonimlardan foydalanilyapti.

**Qo'shish munosabatlari.** Birinchi nomlashni takroriy nomlashga o'tishida qisqarishi juda ko'p uchraydi. Bu dialogning o'zgaruvchi xususiy belgilaridan biridir, chunki suhbatda sharoitni oydinlashtirish aniq bo'ladi. Ikkinchidan, takroriy belgini kengaytirish va unga ega bo'lish mumkin. Matnning tuzilishi ba'zan shunday qonunga muvofiq bo'lib ko'rinadiki, so'rash vaqtida hodisani habarlari umumiy shaklni bildiradi. Keyin konkretlashtirish kuzatiladi, hamma narsa aniq bo'lganidan so'ng gap nima haqida ketayotganligi boshqatdan iborani umumiy shakliga qaytishga imkon yaratadi. Misol:

-Monsieur Demiremont?

C'est Menestrel.

- Ah, Menestrel! Eh bien, que devenez-vous Menestrel?

-J'ai de gros ennuis, monsieur. je n'ai pas encore touche ma bourse.

-Mais c'est scandaleux (R.Merle).

-Xush kelibsiz afandim, volidalari qayerda?

-Qanaqa volida xonim afandi?

-Muallima...Siz muallimaning qizi emasiz?

-Men muallimaning qizi emas, o'ziman, afandim!

-Voy! Muallima hali sizmisiz? Umrin bino bo'lib sizdaqa mushtumday muallimani hech ko'rmagan edim.

-Hozir shunaqasi ham uchrab turadi, afandim.

-Ha uchraydi, siz bilan so'rashib chiqay deb chiquvdim.

Ko'pincha abstrakt nomlash hodisasi yuqorida tilga olingan fe'lli olmosh o'rinbosarlaridan foydalanishni yuzaga chiqaradi. Misol uchun fransuz tilidagi „**en faire autant**” iborasini qo'llash. Rus va fransuz tillarida quyidagi misollarni keltiramiz. Masalan:

*Les gens de la queue les **surveillaient** attentivement. Oubliant Serge, je me suis mis a **en faire autant**.*





*Очередь напряженно следила за ними. Я тоже следил и забыл о Сергее (Аксенов)*

Bu misolda fransuz tili variantida keltirilgan „**surveiller**“ fe'li takror nomlashda „**en faire autant**“ fe'lli olmoshi bilan almashib kelyapti. Birinchi misolda „**qarab turmoq**“ (surveiller) bo'lsa, ikkinchi misolda „**men ham xuddi shunday qildim**“ (**en faire autant**) bo'lib kelyapti. Rus tilida esa ikkala misolda ham bitta fe'l qo'llanilyapti. Birinchi nomlash bevosita takroriy nominatsiyada saqlanib qolyapti. Takroriy nomlashda sharoitning bir necha ma'lum belgilari eng umumiy shaklni bildirmaydi yoki ifodalamaydi.

Demak, aniq vaqtni o'rniga belgilanmagan hozirgi shakl qo'llaniladi, aniq shaxs o'rniga noaniq shaxs yoki shaxssiz shakl ko'rsatiladi. Ko'pincha ish harakatni ifodalovchi mavhum shakl infinitiv va ayniqsa otlashgan fe'l bo'ladi, ya'ni ish harakatni subyekt bilan obyektini munosabatisiz, umumiy holda ko'rsatuvchi bo'ladi[6]. Ko'pincha gapning mavhum shakli ekzisiv gap bo'ladi. Rus tili nominatsiyasi zanjiridagi holatning aniqligi sababli, aynan shu fikrni bayon qilish formasidan foydalaniladi. Misol:

*Кто его знает, я не пробавал, нужды не было (-я не нуждался).*

*Забывать уже стал ведь тебя...*

*И вдруг встреча! (-мы встретились). (Иванов).*

**Kesib o'tish munosabatlari.** U dalillarni, fikrlarni, mavjud bo'lgan munosabatlarni bir biri o'rtasidagi bog'liqlik, sabab natijalarini birlashtiradi. Misol:

Il est **malade**. Il se trouve mal. U **kasal**. Uning ko'ngli behuzur bo'lyapti.

Bu misollarda, birinchi bayon etilgan fikr keyingi fikrni nima bilan tugashini aniqlab uni aniq ko'rsatadi. Bu sinonimik fikrlarning o'zi, ularning belgilari, metonimiya hosil qiluvchi munosabatlarda saqlanib qolgan.

**Turli aspektli nomlash.** Voqea hodisalarni tasvirlashdan oldin, turli aspektli nomlashning ikki turini ko'rib chiqish kerak. Bular static (turg'un) va dinamik (rivojlanuvchi) turlaridir. Birinchisi shu bilan bog'liqlik, har qanday hodisa bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan elementlarga bo'linib tashlanishi mumkin (fazoviy kordinatsiya). Ikkinchisi har qanday voqea bir birini almashtiradigan davrlarga bo'linib tashlanishi mumkin. (zamon kordinatsiyasi)


**Statistik turli aspektli nomlash.** Bu nomlash alohida element bo'lishi, shuningdek, butun vaziyat ham bo'lishi mumkin. Oxirgi paytlarda ular har tomonli voqealarni, maxsus ibora bilan oladilar va ajratib ko'rsatadilar. Misol uchun: **рубка леса**. Keyingi komponentni taxmin qiladi: harakat (kesmoq), harakat qilayotgan shaxs (o'tinchi), mehnat quroli (bolta), obyekt (daraxt). Harakat shu belgilardan har qaysisida ifoda etilishi mumkin. Misol:

*Elle avait cru entendre **des bucherons**.*

*Ей почудился **стук топора**.*

*Il y a des bucherons sur notre droite, pas tres loin d'ici.(Clavel)*

*Справа от нас, не очень далеко, рубят лес.*





Fransuz tilidagi misolda ikkala hodisa ham harakat qilayotgan shaxs („bucherons"-daraxt kesuvchi") orqali metonimiyani bildiriyapti. Rus tilida esa birinchi hodisa mehnat quroli orqali (bolta tovushi), ikkinchi hodisa ob'yekt bilan harakat nomi orqali ifoda qilinyapti (daraxt kesishyapti). Shuni aytish mumkinki, fransuz tili nomlashi ikkala hodisada ham ko'chma, quyuqlashgandir. Narsa (o'tinchilarni) dastavval ko'rib o'zlashtiradi. (U o'tinchi ko'rdi). Eshitish sezgilari esa harakat yoki berilgan narsani ko'rish bilan bog'liqdir. (U bolta tovushini eshitgan edi)

**Dinamik turli aspektli (aniqrog'i turli davri) nomlash.** Bunday nomlash bir jarayonni turli bosqichlarda ko'ringanligi bilan bog'liqdir. Biror narsani avtoruchka bilan yozish uchun hech bo'lmaganda ikkita harakatni bajarish kerak. 1) Ruchka qo'lga olish; 2) Uni qopqog'ini ochish kerak. Umumiy metonimik harakat shu bosqichlardan har birini tasvirlash orqali ifodalanishi mumkin. Misol:

*Il faut que je trouve cette idee, se dit elle en devissant son stylo. (Beauvoir)*  
*Men bu fikrni topishim shart, - dedi, u o'ziga o'zi ruchkani olayotib.*

Matndagi holat belgilari takroriy ifodalashda, u birinchi nomi bilan aniq bo'lganda, nomlashning keyingi uslublaridan foydalanishga sharoit yaratib beradi. Biz bir necha marta belgiladiki, tildagi qurilgan gapda bir xil imkoniyatdan har xil foydalanish ajratib ko'rsatiladi. Ko'p hollarda tillar o'rtasidagi farq juda seziladi. Rus va o'zbek tillari, fransuz tiliga qaraganda ko'proq darajada takroriy ko'rsatmalar birligini bir xil denotatga bildirishga rioya qiladi [7]. Demak, fransuz tili takroriy nomlashda ifodalash vositasini ko'proq o'zgartirar ekan. Lekin takrorlashgan qochishga intilish fransuz tilining xarakterli xususiyatlardan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F. Brunot. La pensée et la langue. Paris. 1922.
2. В. Г. Гак. Сопоставительная лексикология. М. 1981.
3. В.Г Гак. Повторная комбинация и её стилистическое использование. "Вопросы французской филологии". М. 1972.
4. J. Dubois. Grammaire structurale du français. P.1965. VI
5. Я. Ф. Кистанова. Функционально семантическая характеристика глагола "faire" в современном французском языке. АК. Д. М. 1967.
6. G. Moignet "La suppléance du verbe en français". Le français moderne. 1960.VI
7. Языковая номинация. ( Б. А. Серебренников va boshqalar tahriri ostida) М.1977

